

TOG'LI HUDUDDA TOPILGAN TUPROQ SUVO'TLARI TAXLILI

Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna

Namangan davlat texnika universiteti, magistrant

E-mail: ziyodahonuzoqova@gmail.ru Tel: +998943087256

Anotatsiya: Ushbu maqolada shimoliy Farg'onadagi Nanay-Zarkent, janubiy Farg'onadagi Pidir g'ori, sharqiy Farg'onadagi Qoratog' tizmasi va g'arbiy Farg'onadagi Chorkesar tog'larida tuproq va tuproq suv o'tlarining agrokimyoviy tahlili o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Vodiy, tog', quruqliq, turpoq, o'lchov birligi, foiz, agrokimyo, suvo'ti, g'or, iqlim, harorat, tabiiy hudud.

Kirish

Hozirgi vaqtda tog'li hududlarda tuproqlardan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish davom etmoqda. Bundan tashqari, tog'lar asosan yaylov sifatida ishlatiladi, biroq bu hududlarning iqtisodiy salohiyati past. Vodiy aholisi umumiy sonining qariyb 10-15 foizi shu yerda yashaydi. Tog'li hududlarda sanoat korxonalari ham tashkil etilgan. Masalan, Pop tumanida konchilik sanoati boshqa tarmoqlarga nisbatan qisman rivojlangan. Tog'larimizdagi tabiiy muhit va tuproqni asrab qolish uchun meva yetishtirish, o'rmonchilik va chorvachilikni rivojlantirish zarur. Vodiysining tog'li hududi 1200-1300 metrdan 2800 metrgacha bo'lgan balandliklarda yaxshi rivojlangan. Tog'larda harorat va namlik darajasi pastdan yuqoriga qarab o'zgargani sababli tabiat ham shu yo'nalishda o'zgaradi. Vodiy tog'larining etak qismi cho'llarga tutashgani uchun baland tog' hududlari cho'ldan boshlanib, yuqoriga ko'tarilgan sari baland qorli muzliklarga almashinadi. Tog'larda dasht iqlimining ba'zi xususiyatlari-kontinentalik, yillik va sutkalik harorat amplitudasi, havoning quruqligi - saqlanib qoladi, biroq tog' sharoitida bu xususiyatlarning ifodasi susayadi.

Bu esa, o'z navbatida, tog'larda baland tog' mintaqalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, yonbag'ir bo'ylab 100 metr balandlikka ko'tarilganda, havo harorati o'rtacha 0,6 °C ga pasayadi. 3200 metr balandlikdan yuqorida esa o'rtacha yillik havo harorati manfiy bo'lib qoladi. Tog'larda havo haroratining o'zgarishi tog' tizmalari yo'nalishi, yonbag'irlarning quyoshga nisbatan joylashuvi hamda relyefning boshqa ko'plab mintaqaviy xususiyatlariga bog'liq. Vodiy tog'larida

tekisliklarga qaraganda yog‘ingarchilik bir oz ko‘proq bo‘ladi. Natijada, baland tog‘li iqlimiy zonalar shakllanadi. Ushbu o‘zgarishlar balandlik mintaqaviy tabiiy zonalarining hosil bo‘lishi va joylashuviga ta’sir etadi [9].

Materiallar va uslublar:

Tadqiqot uchun tog‘li zonalaridan tuproq na‘munalar olinadi. Tuproq na‘munalarini yig‘ish jarayoni steril qoidalarga rioya qilingan holda maxsus qog‘oz xaltachalarda amalga oshirildi. Tadqiqot davomida Farg‘ona vodiysi tik hududlarining algal florasida o‘ziga xosligi, turlar tarkibi va ularning tarqalishi E.A. Shtina tomonidan ishlab chiqilgan amaliy me‘yorlar asosida o‘rganildi.

Tadqiqot usullarida tuproqda algalarni o‘rganish uch bosqichda amalga oshirildi:

- tuproq na‘munalarini olish;
- tuproq algallari turlarini aniqlash;
- algalar miqdorini belgilash.

Tuproq dastlab diametri 3 mm bo‘lgan elakdan o‘tkazildi. Keyin u quritish shkafida 150 °C da sterilizatsiya qilindi, distillangan suv bilan namlandi, umumiy nam sig‘imining 80–100 % gacha namlantirildi va Petri kosachalariga joylashtirildi [1,2,3]. Bizning tadqiqotlarimiz Farg‘ona vodiysining tog‘li hududlarida hali o‘zlashtirilmagan maydonlarda ham amalga oshirildi: shimoliy Farg‘onada Nanay–Zarkent avtomobil yo‘li bo‘yida; janubiy Farg‘onada Pidir g‘ori atrofidagi yoqalarida; sharqiy Farg‘onada Qoratog‘ tizmasi yonbag‘irlarida; g‘arbiy Farg‘onada esa Chorkesar tog‘lari yoqalaridan olingan tuproq na‘munalarida algologik, mikrobiologik va kimyoviy tahlillar asosida o‘rganildi.

Umuman olganda, Farg‘ona vodiysi tog‘li hududlarining algal florasida **104 ta tur va nav** aniqlangan. Ular 6 ta bo‘lim (Cyanophyta, Xanthophyta, Bacillariophyta, Chlorophyta, Euglenophyta va Cryptophyta), 9 ta sinf, 21 ta tartib, 42 ta oila, 53 ta urug‘, 104 ta tur, 1 ta nav hamda 14 ta shakldan iborat(1-jadval).



1-jadval. Vodiyni tog‘li hududlari tuproq algari florasining taksonomik tahlili

Guruh	Sinf	Tartib	Oila	Avlod i	Jami	Orasida			%
						turlari va navi	na v		
Ko‘k-yashil suvo‘tlari	1	4	12	19	60	46	-	14	58
Sariq-yashil suvo‘tlar	1	2	5	8	9	9	-	-	9
Diatom suvo‘tlar	2	6	8	8	15	14	1	-	15
Yashil suvo‘tlar	3	7	15	15	16	16	-	-	16
Eyglen suvo‘tlar	1	1	1	2	3	3	-	-	3
Kriptofit suvo‘tlar	1	1	1	1	1	1	-	-	1
jami:	9	21	42	53	104	89	1	14	100

Aniqlangan turlarning bo‘limlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha: Cyanophyta bo‘limida 60 ta tur (umumiy turlar sonining 58 foizi), Xanthophyta-9 ta tur (9%), Bacillariophyta-15 ta tur (14%), Chlorophyta-16 ta tur (15%), Euglenophyta-3 ta tur (3%), Chrysophyta esa 1 ta tur (1%). Tog‘li hududlar uchun o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori 71 % ni tashkil etadi. Bu esa tog‘ tuproqlari algotsenozlarining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Faoydaliniilgan adabiyotlar.

1. M.M. Hollerbach, E.A. Stina, Soil Algae, 228 (1969)
2. G.G. Kuzyakhmetov, Algae of zonal soils of steppe and forest-steppe. Soil Science, **9**, 63-71 (1991)
3. G.G. Kuzyakhmetov, Epiphytic algae in consortia of woody plants. Ecology and Environmental Protection, **3**, 19-20 (1995)

4. O. Khusanova, M. Kamoliddinov, The Yecological Features of the Soil Seaweeds. International Conference, 030003-1, 030003-5 (2022)
5. O. Khusanova, Comparative analysis of soil algoflora in some regions of Uzbekistan and Central Asia. International Journal of Virology and Molecular Biology, **12(2)**, 19-21 (2023)
6. A.M. Muzafarov, A.E. Ergashev, S. Khalilov, Determinator of blue-green algae of Central Asia, **1**, 405 (1987)
7. A.M. Muzafarov, A.E. Ergashev, S. Khalilov, Definitel of Blue-Green Algae of Central Asia, **2**, 406-815 (1988)
8. A.M. Muzafarov, A.E. Ergashev, S. Khalilov, Determinator of blue-green algae of Central Asia, **3**, 816-1215 (1988)
9. O.T. Mirzamakhmudov, Foothill Landscapes of the Fergana Valley (monograph), 80 (2021)

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING